QASHQADARYO VILOYATI
SHAHRISABZ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181302, Shahrisabz shahri, Fusunkor ko‘chasi 86-uy, tel/faks: 75-522-02-25

2022 - yil 30 - iyul 183-4-67-Q/22 Shahrisabz tuman hokimligi

“Hisor” davlat qo‘riqxonasining tuman hududidagi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2022 yilning yoz va kuz fasllarida “Hisor” davlat qo‘riqxonasining tuman hududidagi yerlarida yong‘inlar kelib chiqishi, bebaho tabiatning noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, “Hisor” davlat qo‘riqxonasining 2022 yil 30 iyundagi 79-sonli xatini inobatga olib, Muhofaza etiladigan tabiiy xududlar to‘g‘risidagi Qonun hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y, 9-son, 320-modda)ning 6-moddasiga asoslanib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. 2022 yilning yoz, kuz fasllarida “Hisor” davlat qo‘riqxonasining tuman hududidagi yerlarida tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2.“Hisor” davlat qo‘riqxonasi yong‘inga qarshi kurash chora-tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi direktori (Q.Normuxammedov), qo‘riqxona chegara hududidagi “Xitoy” “Sayyod”, “Sarchashma”, “Xisorak”, G‘ilon “Ko‘l” MFYlari raislari hamda tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (A.Po‘latov) qo‘riqxonaning tuman hududidagi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda tegishli barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan ma’sul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

4. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi direktori (Q.Normuxammedov), tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi (A.Po‘latov), tuman Tibbiyot birlashmasi (Z.Jalolov), “O‘ztelekom” AK Shahrisabz tuman filiali (A.Zayniddinov), qo‘riqxona chegara hududidagi “Xitoy”, “Xisor”,“Sayyod”, “Sarchashma”, “Xisorak”, “G‘ilon”, “Miraki” va “Kul” MFY raislariga “Hisor” davlat qo‘riqxonasining tuman hududidagi yerlarida favqulodda yong‘in sodir bo‘lgan taqdirda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini belgilangan tartibda ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi direktori (Q.Normuxammedov) va Shahrisabz tuman Ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i (X.Qarshiyev), qo‘riqxona chegara hududidagi “Xitoy” Sayyod”, “Sarchashma”,“Xisorak”, “G‘ilon”, va “Kul” MFY raislariga qo‘riqxonaning tuman hududidagi yerlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga qo‘riqxona hududlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib tegishli davlat organlarga qonuniy chora qo‘llash uchun taqdim

etish vazifalari topshirilsin.

6.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (A.Qurbonov) zimmasiga yuklatilsin.

Shahrisabz tuman hokimi **S.A.Xasanov**

Shahrisabz tuman hokimining
2022 yil 30 iyuldagi
183-4-67-Q/22-son qaroriga
1-ilova

SHAHRISABZ TUMANI HUDUDIDAGI “HISOR” DAVLAT QO‘RIQXONASI YERLARIDA YONG‘INGA QARSHI KURASH

T A D B I R L A R I

1. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi hudud yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni his etish, yong‘in bo‘lish ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi tadbirlari va ishlarini bajarish, qo‘riqxona hududida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan o‘chirish va bu to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga zudlik bilan xabar qilish.

Bajaradi : “Hisor” davlat qo‘riqxonasi, Fuqarolar yig‘inlari

Muddati : Mavsum davomida

2. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi hududlarida yong‘in chiqqan holda, yong‘in chiqqan joyga ko‘ngilli yong‘in uchirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish, texnika va yong‘inga qarshi transport bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish.

Bajaradi: “Hisor” davlat qo‘riqxonasi, Fuqarolar yig‘inlari, Tuman IIB YoXB

Muddati : Mavsum davomida

3. Quriqxona hududidagi ekspeditsiyalarida komplektlangan yong‘in o‘chirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Quriqxona o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish.

Bajaradi : “Hisor” davlat qo‘riqxonasi, Tuman IIB YoXB

Muddati : Mavsum davomida

4.Ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda qo‘riqxona qo‘riqlash xodimlari qishloq aholisi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mavzularida targ‘ibot ishlarini olib borish.

Bajaradi : “Hisor” davlat qo‘riqxonasi, Shahrisabz ro‘znomasi muxaririyati,

Muddati : Mavsum davomida

5. Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan tegishli hujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi gurux tuzish uni xarakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda joylarda seminarlar tashkil qilish.

Bajaradi : “Hisor” davlat qo‘riqxonasi, Tuman IIB YoXB

Muddati : Mavsum davomida

Shahrisabz tuman hokimining
2022 yil 30 iyuldagi
183-4-67-Q/22-son qaroriga
2-ilova

2022-yilda “Hisor” davlat qo‘riqxonasi G‘ilon, Miraki va Tanxazdaryo bo‘limlarida favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish

R E J A S I

T/r	Shaxrisabz tumani	Joylashgan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari				O‘rmon bo‘limlarining nomi	Texnika-lar soni	Shundan suv tashish mashinasi
		Jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	Bolta	Arra	Belkurak	Chelak			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	Hisor MFY			50	40	100	200	Tanxozdaryo bulimi	2	1
2	Xitoy MFY			60	50	100	150	Miraki bulimi	1	1
3	Sayyod MFY			55	65	110	120	Miraki bulimi	1	1
4	Sarchashma MFY			40	45	85	125	Miraki bulimi	1	1
5	Hisorak MFY			75	55	120	130	Miraki bulimi	2	1
6	G‘ilon MFY			115	80	150	125	G‘elon bulimi	1	1
7	Kul MFY			110	110	115	120	G‘elon bulimi	1	1
8										
9										
10										
11										
12										

Kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joylarda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	Qo‘riqlash xodimi bosh mutaxasis I.F.O	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar shaxs	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob- uskunalarini olish joyi
11	12	13	14	15	16

Fuqarolar yig‘inlari	Tuman Tibbiyot birlashmasi (Z.Jalolov)	“O‘ztelekom” AK Shaxrisabz tuman filial (A.Zayniddinov)	Ismoil Niyozov Axmedov Anvar Xudoyqulov Abdulaziz	Qo‘riqxona xodimlari	Qo‘riqxona kardonlari, Mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari